



MOLIYAVIY INKLYUZIYA VA IJTIMOY TENGLIK O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNI ANIQLASHGA ILMIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrası professori, i.f.d.

Email: bekziyo84@mail.ru

Orcid: 0000-0002-5063-6942

Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Buxgalteriya hisobi” kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss6/753

Annotatsiya

Maqolada moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tenglik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘p omilli tahlil usullari asosida tadqiq etildi. Tadqiqot doirasida SARMA metodologiyasiga tayangan holda integral indeks shakllantirildi hamda asosiy komponentlar tahlili (PCA) orqali ta‘sir etuvchi omillar aniqlandi. Global Findex va Jahon banki ma‘lumotlari asosida Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy inklyuziyaning hududiy xususiyatlari baholandi.

Tahlil natijasida hududlar kesimidagi tafovutlar, gender tengsizligi hamda turli daromad guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Shuningdek, mintaqalarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi bilan raqamli kirish imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar ochib berildi va ularni kamaytirishga qaratilgan institutsional hamda siyosiy chora-tadbirlar taklif etildi.

Olingan natijalar ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosati va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: moliyaviy inklyuziya, ijtimoiy tenglik, hududiy tafovut, raqamli moliya, Gini koeffitsienti, ko‘p omilli tahlil, komponentlar tahlili, gender tafovuti, indekslash.

Аннотация

В статье взаимосвязь между финансовой инклюзией и социальной справедливостью исследована на основе методов многофакторного анализа. В рамках исследования на основе методологии SARMA был сформирован интегральный индекс, а с использованием анализа главных компонент (PCA) выявлены ключевые факторы влияния. На основе данных Global Findex и Всемирного банка проведена оценка региональных особенностей финансовой инклюзии в странах Центральной Азии.

В результате анализа были выявлены региональные различия, гендерное неравенство, а также расхождения между различными группами доходов. Кроме того, установлены диспропорции между уровнем использования финансовых услуг и возможностями цифрового доступа в регионах, на основе чего предложены институциональные и политические меры по их сокращению.

Полученные результаты имеют практическое значение для формирования государственной политики в области социальной справедливости и разработки стратегий развития финансовой инклюзии.

Ключевые слова: финансовая инклюзия, социальное равенство, региональные различия, цифровые финансы, индекс Сармы, коэффициент Джини, гендерный разрыв, многомерный анализ.

Abstract

The article examines the relationship between financial inclusion and social equity using multi-factor analytical methods. Within the framework of the study, an integrated index was constructed based on the SARMA methodology, and key influencing factors were identified through Principal Component Analysis (PCA). Using data from Global Findex and the World Bank, the regional characteristics of financial inclusion in Central Asian countries were assessed.

The analysis revealed regional disparities, gender inequality, and differences among income groups. In addition, imbalances between the level of access to financial services and digital connectivity across regions were identified, and institutional and policy measures aimed at reducing these disparities were proposed.

The findings have practical significance for the development of public policies aimed at promoting social equity and formulating strategies for advancing financial inclusion.

Keywords: financial inclusion, social equality, regional disparity, digital finance, Sarma index, Gini coefficient, gender gap, multivariate analysis.

Kirish

Moliyaviy inklyuziya - aholining barcha qatlamlari uchun bank xizmatlari, kredit, jamg'arma va sug'urta kabi rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan jarayon bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi [3]. Jahon banki 2024-yilgi "Kambag'allik, farovonlik va sayyora" hisobotiga ko'ra, global miqyosda kambag'allikni kamaytirish sur'ati sekinlashib, 2020-2030-yillar "yo'qotilgan o'n yillik" bo'lib qolish xavfi mavjud [1] degan xulosaga kelmoqda. 2024-yilda dunyo aholisining 8,5 foizi (692 million kishi) kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan o'ta kambag'allik sharoitida yashaydi. Yuqori daromadli o'rta mamlakatlar uchun xos bo'lgan kuniga 6,85 dollar chegarasida esa dunyo aholisining 43,6 foizi (3,5 milliard kishi) kambag'al hisoblanadi [1].

Global Findex 2025 ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida kattalarning 79 foizi moliyaviy hisobga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 2014-yildagi 62 foizdan sezilarli oshgan [2]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hisobga egalik darajasi 75 foizni tashkil etgan. Biroq mintaqaviy farqlar katta bo'lib, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqalarida 83 foiz, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada esa atigi 53 foizni tashkil etgan [2]. Sahroi Kabirdagi Afrika mintaqasida moliyaviy hisobga egalik 2014-yildagi 34 foizdan 2024-yilda 58 foizga oshgan va mobil pul xizmatlarining jadal rivojlangan[4].

Hududiy tengsizlik muammosi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Jahon banki hisobotlariga ko'ra, yuqori daromad tengsizligiga ega mamlakatlar soni so'nggi 24 yilda eng yuqori darajada kamaygan bo'lib, 2000-yildagi 61 tadan 2024-yilda 49 taga tushgan [1]. Biroq yuqori tengsizlik mamlakatlarida hali ham 1,7 milliard kishi (dunyo aholisining 20 foizi) istiqomat qiladi. Bu mamlakatlar asosan Lotin Amerikasi, Karib havzasi va Sahroi Kabirdagi Afrika mintaqalarida joylashgan [1]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasida moliyaviy inklyuziya bir nechta maqsadlar belligdan bo'lib, xususan, kambag'allikni bartaraf etish (SDG 1), munosib ish va iqtisodiy o'sish (SDG 8) hamda tengsizlikni kamaytirish (SDG 10) bilan bevosita bog'liqdir [5].

Mazkur holatlar moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tenglik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda hududiy o'ziga xosliklarni hisobga oluvchi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, tahlil usullaridan foydalangan holda moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tenglik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va baholashga ilmiy yondashuvlarni shakllantirish talab etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy inklyuziyani o'lchash bo'yicha ilmiy adabiyotda bir qator metodologik yondashuvlar mavjud. Sarma tomonidan masofa asosidagi moliyaviy inklyuziya indeksini (IFI) hisoblash metodikasi taklif etilgan bo'lib, xalqaro darajada keng qo'llaniladi [6]. Ushbu metodologiya BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan Inson taraqqiyoti indeksini (HDI) hisoblashda qo'llaniladigan usulga o'xshash bo'lib, turli o'lchov indikatorlari asosida baholanadi. Sarma metodologiyasi uch asosiy o'lchovni — mavjudlik (penetration), imkoniyat (availability) va foydalanish (usage) ko'rsatkichlarini birlashtiradi va 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda indeks qiymatlari asosida tabaqalashuvni baholaydi [7].

Cámara va Tuesta ikki bosqichli asosiy komponentlar tahlili (PCA) usulida tabaqalashuv darajasini endogen tarzda baholash imkonini beradi [8]. Amidžić va boshqalar omilli tahlil usulini qo'llab, moliyaviy inklyuziya o'lchovlarini va ularning vazn koeffitsiyentlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqqan [9]. Park va Mercado tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy inklyuziya indeksi 151 ta iqtisodiyot uchun asosiy komponentlar tahlili orqali hisoblangan bo'lib, kirish, mavjudlik va foydalanish bo'yicha to'qqizta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi [10]. Pesqué-Cela va boshqalar tasdiqlash omilli tahlil (CFA) usulidan foydalanib, mavjud indekslarning metodologik cheklovlarini aniqlagan va yangi yondashuvlar taklif qilgan [11].

Moliyaviy inklyuziyaning kambag'allik va daromad tengsizligiga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar turli natijalarni ko'rsatadi. Omar va Inaba (2020) 116 ta rivojlanayotgan mamlakatda o'tkazgan panel tahlili moliyaviy inklyuziyaning kambag'allik darajasi va daromad tengsizligini sezilarli kamaytirishini isbotlagan [12]. Polloni-Silva va boshqalar (2021) Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida moliyaviy inklyuziya va texnologik rivojlanishning birgalikdagi ta'sirini tahlil qilib, ularning kambag'allik va tengsizlikni kamaytirishini mumkinligini asoslaydi [13]. Osakwe va Solleder (2023) boylik taqsimoti va daromad tengsizligi o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilib, rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyaning tengsizlikni kamaytirishga ijobiy ta'sirini aniqlagan [14].

Jahon banki 2024-yilgi hisobotida ta'kidlanishicha, moliyaviy inklyuziya va kambag'allik o'rtasida aniq bog'liqlik mavjudligini asoslaydi. Afrika mamlakatlarida eng yuqori kambag'allik darajasiga ega mintaqada, aholining katta qismi ijtimoiy himoya dasturlari yoki moliyaviy hisobga ega emas [1]. Bu holat moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish va iqtisodiy zarbalarga bardoshlilikni oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Hududiy tengsizlikni o'lchashda Gini koeffitsienti eng keng tarqalgan ko'rsatkich hisoblanadi [15]. Italiyalik statistik Korrado Gini tomonidan 1912-yilda ishlab chiqilgan ushbu ko'rsatkich daromad yoki boylik taqsimotidagi tengsizlikni 0 dan 1 gacha bo'lgan shkalada ifodalaydi [16]. Jahon banki 2024-yilgi hisobotida yangi "Farovonlik tafovuti" (Prosperity Gap) ko'rsatkichi taqdim etilgan bo'lib, u jamiyatlarning kuniga 25 dollargacha bo'lgan daromaddan qanchalik uzoqda ekanligini o'lchaydi [1]. 2024-yilda global farovonlik tafovuti

besh barobarni tashkil etadi, ya’ni o’rtacha hisobda daromadlar bu standartga erishish uchun besh marta oshishi kerakligi bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan [1].

Jahon banki hisobotiga ko’ra, 2024-yilda Gini koeffitsienti 40 dan yuqori bo’lgan yuqori tengsizlik mamlakatlarining soni 49 tani tashkil etadi [1]. Dunyo aholisining 70 foizi o’rtacha tengsizlik (Gini 30-40 oralig’ida) mamlakatlarida, atigi 7 foizi esa past tengsizlik (Gini 30 dan past) mamlakatlarida yashaydi [1].

Metodologiya

Tadqiqotda moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tenglik o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash uchun ko’p bosqichli metodologik yondashuv qo’llanilgan. Birinchi bosqichda Sarma (2015) metodologiyasi asosida moliyaviy inklyuziya indeksi (IFI) hisoblash formulasi qo’llaniladi [6]. O’lchovlar indeksini hisoblash uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$d_i = w_i \times \frac{A_i - m_i}{M_i - m_i} \quad (1)$$

Bu yerda :

- d_i - i-o’lchov bo’yicha normallashtirilgan indeks qiymati
- A_i - i-o’lchovning haqiqiy qiymati
- m_i - i-o’lchovning minimal qiymati
- M_i - i-o’lchovning maksimal qiymati
- w_i - i-o’lchovning vazn koeffitsiyenti

O’lchovlar indeksini hisoblab chiqilgandan so’ng, yaxlitlik indeksi Evklid masofasi formulasi orqali aniqlanadi [6].

Ikkinchi bosqichda ko’rsatkichlar tizimidagi ortiqchalikni bartaraf etish va eng muhim omillarni aniqlash uchun asosiy komponentlar tahlili (PCA) qo’llaniladi [17]. PCA - korrelyatsiyalangan o’zgaruvchilar to’plamini korrelyatsiyalanmagan asosiy komponentlarga aylantirishga imkon beruvchi o’lchovni kamaytirish usuli hisoblanadi. Birinchi asosiy komponent (PC1) ma’lumotlardagi eng katta dispersiyani tushuntiradi, keyingi komponentlar esa qolgan dispersiyani kamayish tartibida tushuntiradi. Tadqiqotda Kaiser-Meyer-Olkin (KMO) o’lchovi va Bartlett sferiklik testi orqali ma’lumotlarning PCA uchun mosligini tekshirish amalga oshiriladi [9].

Moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblashda Global Findex 2025 ma’lumotlari asosida uch o’lchov bo’yicha ko’rsatkichlar qo’llaniladi [2]:

1) Mavjudlik o’lchovi — moliyaviy hisobga egalik darajasi, 100 000 aholi boshiga bank filiallari va bankomatlar (ATM) soni;


2) Foydalanish o’lchovi — raqamli to’lovlardan foydalanish, moliyaviy muassasalarda jamg’arma, kredit olish imkoniyati;

3) Sifat o’lchovi — moliyaviy savodxonlik darajasi, xizmatlardan qoniqish va raqamli ulanish ko’rsatkichlari. Ijtimoiy tenglik ko’rsatkichlari sifatida Jahon banki Kambag’allik va tengsizlik platformasi (PIP) ma’lumotlari asosida Gini koeffitsienti, farovonlik tafovuti (Prosperity Gap) hamda turli kambag’allik chegaralaridagi aholi ulushi qo’llaniladi [18].

Tahlil va natijalar

Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy inklyuziya ko’rsatkichlari

XVF 2023-yilgi tadqiqotiga ko’ra, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida moliyaviy inklyuziya darajasi sezilarli farqlarga ega [19]. Qozog’istonda moliyaviy hisobga egalik 81,1 foizni tashkil etsa, Tojikistonda bu ko’rsatkich atigi 39,5 foizni tashkil qilgan. 1-rasmda Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy hisobga egalik darajasi keltirilgan.




1-rasm. Markaziy Osiyo: Moliyaviy hisobga egalik darajasi (2024)[19],[2].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston mintaqada yetakchi o'rinni egallaydi (81,1%), O'zbekiston o'rtacha darajada (58,2%), Qirg'iziston (52,4%) va Turkmaniston (40,8%) past-o'rtacha, Tojikiston esa eng past ko'rsatkichga ega (39,5%). Mamlakatlar orasidagi farq 41,6 foiz punktni tashkil etadi, bu esa mintaqada moliyaviy inklyuziya darajasining notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi.

Raqamli to'lovlar va mobil texnologiyalardan foydalanish holati


2-rasmda Markaziy Osiyo mamlakatlarida raqamli to'lovlar va mobil telefon egaligi ko'rsatkichlari keltirilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mobil telefon egaligi barcha mamlakatlarda yuqori (75-89%), biroq raqamli to'lovlardan foydalanishda sezilarli farqlar mavjud. Bu FinTech va mobil bank xizmatlari rivojlanishi uchun katta salohiyat mavjudligini namoyon etsada ulardan foydalanish holati pastligicha qolayotganligidan dalolat beradi [19].



2-rasm. Markaziy Osiyo: Raqamli to'lovlar va mobil telefon egaligi [19],[2].

Ko'p o'lchovli moliyaviy inklyuziya tahlili


3-rasmda Markaziy Osiyo mamlakatlarining beshta asosiy ko'rsatkich bo'yicha ko'p o'lchovli baholash amalga oshirilgan. Radar diagramma ko'rsatadiki, Qozog'iston barcha o'lchovlar bo'yicha yetakchi, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtacha darajada, Tojikiston esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha past natijaga ega.



3-rasm. Moliyaviy inkluziyani umumiy baholash bo'yicha radar diagramma [19].


Daromad guruhlari bo'yicha moliyaviy inkluziya

4-rasmda daromad guruhlari bo'yicha moliyaviy inkluziya ko'rsatkichlari keltirilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarida eng kambag'al 20% aholining moliyaviy xizmatlarga kirishi eng boy 20% bilan taqqoslaganda 2-3-marta past. Bu tengsizlik muammosi ayniqsa Tojikiston va Turkmanistonda keskin namoyon bo'ladi [19].



4-rasm. Daromad guruhlari bo'yicha moliyaviy inkluziya [19],[2].


5-rasmda 2011-2024-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy inklyuziya dinamikasi keltirilgan. Global Findex ma’lumotlariga ko’ra, barcha mamlakatlarda sezilarli o’sish kuzatilgan. Qozog’iston 2011-yildagi 42 foizdan 2024-yilda 83 foizga, O’zbekiston 23 foizdan 62 foizga oshgan. Qirg’iziston eng keskin o’sishni ko’rsatgan - 4 foizdan 55 foizga oshgan [2].



5-rasm. Moliyaviy inklyuziya dinamikasi (2011-2024)[2].

Gender tafovuti tahlili

6-rasmda Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy inklyuziyada gender tafovuti keltirilgan. Tahlil shuni ko’rsatadiki, ayollar uchun moliyaviy inklyuziya ko’rsatkichlari erkaklar bilan taqqoslaganda 4-11 foiz punkt past. Eng katta gender farqi Tojikistonda 11 foiz, eng kichik farq esa Qozog’istonda 4 foiz kuzatilgan [19].



6-rasm. Moliyaviy inklyuziyada gender tafovuti [19],[2].

Xulosa va takliflar

Moliyaviy xizmatlarga kirish ko'rsatkichlaridagi global ijobiy o'zgarishlar raqamli moliya vositalarining ommalashuvi jarayonida sezilarli sur'atlarda ortgan. Global Findex 2025 ma'lumotlariga ko'ra, 2014-yilda 62 foiz bo'lgan kattalar orasida moliyaviy hisobga egalik darajasi 2024-yilda 79 foizga yetgan. Biroq bu o'sish butun mintaqalar kesimida bir xilda taqsimlanmagan. Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududida moliyaviy inklyuziya darajasi 83 foizni tashkil etsa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida bu ko'rsatkich 53 foizdan oshmagan. Mazkur nomutanosibliklar global moliyaviy inklyuziya dinamikasi ichidagi hududiy tafovutlarning tizimli va chuqur tahlil qilish lozimligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida moliyaviy inklyuziyaning hududiy tafovutlar aniq namoyon bo'ladi. Mintaqaviy iqtisodiyotlar o'rtasidagi tafovutlar, infratuzilmaviy rivojlanish darajalari va moliyaviy institutlarga ishonch ko'rsatkichlari moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Qozog'istonda aholi hisobga egalik darajasi 81,1 foiz bo'lsa, Tojikistonda bu ko'rsatkich atigi 39,5 foizni tashkil etadi. Bu farq 41,6 foiz punktni tashkil etib, region ichidagi moliyaviy kirish imkoniyati bo'yicha keskin tafovutni aks ettiradi va hududiy siyosatlarida differensial yondashuvni zarur qiladi.

Mobil qurilmalarga egalik darajasi mintaqada nisbatan yuqori bo'lsa-da, ularning moliyaviy xizmatlarga real integratsiyasi cheklanganligicha qolmoqda. 75–89 foiz oralig'idagi mobil telefon egalik darajasiga qaramay, raqamli to'lov xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada past. Bu holat raqamli kirish imkoniyati bilan raqamli foydalanish imkoniyati o'rtasidagi tuzilmaviy tafovutga ega ekanligiga ishora qiladi. Mazkur holatlar FinTech infratuzilmasining mavjudligi uning ishlash samaradorligini ta'minlash uchun yetarli darajada emasligini anglatadi. Shunga ko'ra, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi, ishonch darajasi va moliyaviy madaniyati kabi ijtimoiy omillar bilan birgalikda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Tahlil natijalariga asoslanib, moliyaviy inklyuziya darajasini hududlar kesimida oshirish, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi tengsizlikni bartaraf etish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi talab etiladi:

1. Raqamli moliyaviy xizmatlar va mobil banking infratuzilmasini kengaytirish. Hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish uchun keng polosali internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlarini yaxshilash, FinTech startaplar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy muhit yaratish va raqamli to'lov infratuzilmasini subsidiya qilish zarur. Moliyaviy texnologiyalarga asoslangan xizmatlarning arzonligi va qulayligi ularni kam ta'minlangan qatlamlar orasida ommalashtirishga imkon beradi.

2. Moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan manzilli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish faqat texnologik mavjudlik bilan emas, balki aholining ushbu xizmatlarni tushunish va ulardan samarali foydalanish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, ayollar, yoshlar va qishloq aholisi uchun mo'ljallangan interaktiv, ko'rgazmali va mobil ilovalar asosidagi ta'lim vositalarini joriy etish moliyaviy madaniyatni oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

3. Daromad guruhlari orasidagi moliyaviy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan moliyaviy vositalarni rivojlantirish. Eng past daromadli qatlamlar uchun mo'ljallangan subsidiyalangan mikro-kreditlar, minimal balans talab qilinmaydigan bank hisobvaraqlari, nol komissiyali raqamli hamyonlar va ijtimoiy yordamlarni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy tizimga

bog'lash orqali ularning moliyaviy tizimga kirish darajasini oshirish mumkin. Bu chora-tadbirlar, ayniqsa, kambag'allik chegarasida yashovchi aholining moliyaviy barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

4. Gender tafovutini kamaytirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlar dizaynini ishlab chiqish. Ayollar uchun maxsus ishlab chiqilgan moliyaviy mahsulotlar, masalan, ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishga mo'ljallangan kredit liniyalari, raqamli hisoblar, sug'urta mahsulotlari va moliyaviy ta'lim dasturlari orqali gender tafovutini qisqartirish mumkin. Bunday xizmatlar gender inkluzivligi siyosatining amaliy komponenti bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. (2024). Poverty, Prosperity, and Planet Report 2024: Pathways Out of the Polycrisis. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2123-3. <https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-prosperity-and-planet-report>
2. World Bank. (2025). The Global Findex Database 2025: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex>
3. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., & Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC: World Bank. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4>
4. FinDev Gateway. (2025). Financial Inclusion: A Global Overview. <https://www.findevgateway.org/region/financial-inclusion-global-overview>
5. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. <https://sdgs.un.org/2030agenda>
6. Sarma, M. (2015). Measuring financial inclusion. Economics Bulletin, 35(1), 604-611. <https://ideas.repec.org/a/ebl/ecbull/eb-14-00854.html>
7. Sarma, M. (2012). Index of Financial Inclusion – A measure of financial sector inclusiveness. Berlin Working Papers on Money, Finance, Trade and Development, Working Paper No. 07/2012. <https://ideas.repec.org/p/mtf/wpaper/1207.html>
8. Cámara, N., & Tuesta, D. (2014). Measuring Financial Inclusion: A Multidimensional Index. BBVA Research Working Paper No. 14/26. https://www.bbva-research.com/wp-content/uploads/2014/09/WP14-26_Financial-Inclusion.pdf
9. Amidžić, G., Massara, A., & Mialou, A. (2014). Assessing Countries' Financial Inclusion Standing – A New Composite Index. IMF Working Paper WP/14/36. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2014/wp1436.pdf>
10. Park, C. Y., & Mercado, R. (2018). Financial Inclusion: New Measurement and Cross-Country Impact Assessment. ADB Economics Working Paper Series No. 539. <https://www.adb.org/publications/financial-inclusion-new-measurement-cross-country-impact-assessment>
11. Pesqué-Cela, V., Tian, L., Luo, D., Tobin, D., & Kling, G. (2021). Defining and measuring financial inclusion: A systematic review and confirmatory factor analysis. Journal of International Development, 33(2), 316-341. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1002/jid.3524>
12. Omar, M. A., & Inaba, K. (2020). Does financial inclusion reduce poverty and income inequality in developing countries? A panel data analysis. Journal of Economic

<https://journalofeconomicstructures.springeropen.com/articles/10.1186/s40008-020-00214-4>

13. Polloni-Silva, E., da Costa, N., Moralles, H. F., & Neto, M. S. (2021). Does Financial Inclusion Diminish Poverty and Inequality? A Panel Data Analysis for Latin American Countries. *Social Indicators Research*, 158, 889-925.

<https://link.springer.com/article/10.1007/s11205-021-02730-7>

14. Osakwe, P. N., & Solleder, O. (2023). Wealth Distribution, Income Inequality and Financial Inclusion: A Panel Data Analysis. UNCTAD Working Paper No. 4.

<https://unctad.org/publication/wealth-distribution-income-inequality-and-financial-inclusion-panel-data-analysis>

15. Gini, C. (1912). Variabilità e mutabilità: contributo allo studio delle distribuzioni e delle relazioni statistiche. Bologna: Tipografia di Paolo Cuppini.

16. Hasell, J. (2023). Measuring inequality: what is the Gini coefficient? Our World in Data. <https://ourworldindata.org/what-is-the-gini-coefficient>

17. Jolliffe, I. T., & Cadima, J. (2016). Principal component analysis: a review and recent developments. *Philosophical Transactions of the Royal Society A*, 374(2065), 20150202. <https://doi.org/10.1098/rsta.2015.0202>

18. World Bank. (2024). Poverty and Inequality Platform. <https://pip.worldbank.org/>

19. IMF. (2023). The Anatomy of the Financial Inclusion Gap in the Caucasus and Central Asia. IMF Working Papers 2023/109.

<https://www.elibrary.imf.org/view/journals/001/2023/109/article-A001-en.xml>

20. IFC. (2024). IFC Increases Impact in Central Asia with Strong Investments in Fiscal Year 2024. <https://www.ifc.org/en/pressroom/2024/ifc-increases-impact-in-central-asia-with-strong-investments-in-fiscal-year-2024>

21. IFAD. (2024). PRIME Migrant Contributions for Development: Central Asia - Uzbekistan. https://www.ifad.org/documents/d/latest/cfp_uzbekistan_eng

22. Chakravarty, S. R., & Pal, R. (2013). Financial inclusion in India: An axiomatic approach. *Journal of Policy Modeling*, 35(5), 813-837.

<https://doi.org/10.1016/j.jpolmod.2012.12.007>

23. Hussain, S., Rehman, A. U., Ullah, S., Waheed, A., & Hassan, S. (2024). Financial Inclusion and Economic Growth: Comparative Panel Evidence from Developed and Developing Asian Countries. *SAGE Open*, 14(1).

<https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/21582440241232585>

24. UN DESA. (2025). The Sustainable Development Goals Report 2025. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2025/>

25. Asian Development Bank. (2024). Key Indicators for Asia and the Pacific 2024. <https://www.adb.org/publications/key-indicators-asia-and-pacific-2024>